


“BOLALARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA”GI PREZIDENT FARMONI



PF-185-son, 14.11.2024-y



“ONALAR MASKANI” QANDAY JOY?



Qiyin ahvolga tushib qolgan va yaqinlari yordam bera olmaydigan onalar uchun bolalar uylarida “Onalar maskani” xizmati mavjud. Bu joyga homilador ayollar ham borishi mumkin.

Bu yerda:



Qiyin ahvolga tushgan onalar va ularning 4 yoshga to‘lmagan bolalari 1 yilgacha vaqtincha yashash joyi bilan ta’minlanadi;



Onalarga kerakli yordamlar beriladi: suhbatlashish, maslahat olish, sog‘lig‘ini tekshirtirish va huquqiy yordam;



Ularga yaxshi ona bo‘lish va kasb o‘rganish ko‘nikmalari o‘rgatiladi;



“Inson” markazlari onalarga kasb topish va ishga joylashishga yordam beradi.

BOLALARNI BOG'CHAGA QO'YISHDA YORDAM BERILADI



Agar ona yoki ota yolg'iz bo'lsa va ishlayotgan bo'lsa, bolasini bog'chaga berishni istasa, davlat moddiy yordam beradi.

Buning uchun ular maxsus ro'yxatda (ijtimoiy reyestrda) bo'lishi kerak.



Bu yordam bola 3 yoshga to'lguncha beriladi.



Agar bolalar egizak bo'lsa

har bir bola bog'chaga borishi uchun alohida moddiy yordam beriladi.

“INSON” IJTIMOIIY MARKAZI TOMONIDAN:



Agar bola ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lsa yoki kimdir unga nisbatan yomon muomalada bo'lsa, 6 oygacha oilaviy bolalar uyiga joylashtiriladi. Bu uy bola uchun xavfsiz va qulay joy bo'ladi.

OILAVIY BOLALAR UYINI KIMLAR TASHKIL QILADI?



Endilikda oilaviy bolalar uyini ochish uchun, oila faqat ota-onadan iborat bo'lishi shart emas. 30 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari shunday uyni ochishi mumkin. Bu uyni ochgan odamlar “o'zini o'zi band qilgan” shaxslar deb hisoblanadi.



Agar bola himoyaga muhtoj bo'lsa yoki uyi bo'lmasa, uni tarbiya qilish uchun oilaga beriladi. Lekin bu oila bolaning yaqin qarindoshlari bo'lishi shart.